

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHOYIMOVA GULSHOD SHOYIM QIZI

**O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA DEHQONGA VA
DEHQONCHILIKKA MUNOSABAT (NAVOIY VA BOBUR IJODI
MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Shoyimova Gulshod Shoyim qizi

О‘zbek mumtoz adabiyotida dehqonga va dehqonchilikka munosabat (Navoiy va Bobur ijodi misolida)5

Шойимова Гулшод Шойим кизи

Отношение к дехкану и земледелию в узбекской классической литературе (на примере творчества Наваи и Бабура).....25

Shoyimova Gulshod Shoyim kizi

Attitude towards peasant and peasant farming in uzbek classical literature (on the example of the work of Navoi and Babur)47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHOYIMOVA GULSHOD SHOYIM QIZI

**O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA DEHQONGA VA
DEHQONCHILIKKA MUNOSABAT (NAVOIY VA BOBUR IJODI
MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5256 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (buxdu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hayitov Shavkat Ahmadovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qobilov Usmon Uralovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jo‘raboyev Otabek Rustambek o‘g‘li

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “26” mart soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (836 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “6” mart kuni tarqatildi.

(2026-yil “6” mart dagi 7 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G‘. Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.Q. Amonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida adabiy merosdagi har bir hodisaning diniy, tarixiy va adabiy manbalarini o'rganish, zamonaviy taraqqiyot, ijtimoiy, madaniy, ilmiy tafakkur yutuqlari asosida badiiy adabiyot tarixini teran tadqiq etish, so'z san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan yetuk badiiy yaratmalarning adabiy-poetik xususiyatlarini ilg'or usullar asosida ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijodkor uslubi va mahorati, shaxsiyat va ijod muammolariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligi oldiga yangi taraqqiyot va zamonaviy ilmiy tafakkur davr uchun dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Dehqonchilik motivi va uning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy talqinlari, timsol-obrazlari, ular bajargan poetik funktsiya va badiiy manzaralar, bu obrazlarning badiiy-estetik fikr taraqqiyotidagi o'rni xususida amalga oshirilgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir. Mumtoz ijodkorlarning olam va odam, tabiat va dehqon, dehqon va jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari, eng nozik va rangin kechinmalari yetuk badiiy asarlarning sahifalarida muhrlangan. Shu ma'noda dehqon va dehqonchilikka munosabat masalasini o'zbek adabiyotining eng sara namunalari misolida jahon adabiyotshunosligi erishgan yutuqlar asosida tadqiq etish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mustaqillik tufayli o'zbek mumtoz adabiyotini o'z mohiyati, o'z manbalari, o'z tarixi, o'z rivojlanish qonuniyatlari asosida talqin etish imkoniyati yaratildi. Ma'naviy ehtiyojlar poyonsiz va uzluksiz ruhiy olamga aylandi. Taxminiy, soxta va g'ayri ilmiy qarashlarga chek qo'yilib, muqaddas moziyning qorong'u sahifalari yoritila boshladi.

Ajdodlar zamini va unda dehqon mehnati tufayli ungan bug'doy – uning hosilasi non avval moddiy talablar ustunlik qilib, inson yashashi va hayoti uchun birinchi darajali zaruriyat hisoblangan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlariga kelib, moddiy olam bilan birga ma'naviy ehtiyojlar, ruhiy olamni belgilovchi qudratli kuchga aylandi. Va ancha barvaqt, uch ming yillik ibtidosida O'zbekiston hududida qadimiy sivilizatsiyaning qonuniy hujjati “Avesto” sahifalarida muhrlandi. Dehqon va g'alla badiiy umumlashma xususiyati va o'ziga xos hissiy ta'sir kuchi bilan mukammal obraz maqomiga ko'tarildi. Hayotiy voqealar, dehqon va dehqonchilik tasviri o'zbek mumtoz adabiyotining Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulug' namoyandalarining aqli, tafakkuri, qalbi, ruhi, salohiyati bilan boyitildi.

Badiiy tasvirga xos talqinlar, dehqon va dehqonchilikka oid voqelikni butun latofati bilan o'quvchi ko'zi oldida gavdalanitirish, ixcham bayon, uslubning o'ziga xosligi “Qisasi Rabg'uziy”, “Boburnoma” kabi o'zbek nasrining noyob va nodir namunalari sahifalariga jon va ruh bag'ishladi. “Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish”¹ muhim

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017-йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.// “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2017-йил, 25-май.

vazifalardan sanaladi. Shu ma'noda o'zbek adabiyotida dehqon motivi va dehqonchilik talqini mavzusi o'zbek xalqining umumbashariy ezgulik, halollik, to'g'rilik, komillik, insonparvarlik tuyg'ulari badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi va muammoni maxsus tadqiq etishni zaruratga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi PQ-5009-son "Aholiga dehqon xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuning ayrim tomonlariga e'tibor N.Mallayev, A.Hayitmetov, A.Qayumov, R.Vohidov, S.G'aniyeva, A.Habibullayev, H.Homidiy, T.Mahmudov tadqiqotlarida kuzatiladi. Suv dehqonchilikning qoni va joni hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan akademik A.Qayumovning quyidagi fikrlari chuqur ilmiy asosga ega: "Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bu yerlarda sersuv daryolar mo'l hosilning garovi edi. Bu suvlar faqat yerni emas, balki havoni ham boyitar, uni ozoda va pok etar edi. Shuning uchun ham shoir o'lka ta'rifini tirik hayot boisi bo'lgan suv ta'rifidan boshlaydi"². A.Habibullayev o'zining Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining janriy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyasida hamda shu tadqiqot mazmuni yuzasidan chop qilingan "Navoiy pandnomasi" monografiyasida dehqonlarning sermashaqqat mehnati asrlar osha ulug'lanib kelsa-da, pandnomalardan faqat "Qobusnoma", "Saodatnoma", "Mahbub ul-qulub"dagina

² Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд, 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 317.

unga e'tibor berilganligini aniqlagan³.

O'zbek adabiyotshunosligida R.Vohidovning "Biz bilgan va bilmagan Bobur" kitobining yakunlovchi "Buxoroning shirin qovunlari"⁴ sarlavhasi ostidagi ixcham maqolani istisno qilganda – alohida maqola, risola, monografiya, dissertatsiya – yaratilmagan. Muayyan tadqiqotlar tarkibida mavzuning ba'zi tomonlari tilga olib o'tilgan ishlar mavjud⁵.

Biz o'rganayotgan mavzu mohiyatini yoritishda L.To'rayevaning "O'zbek folklorshunosligida mehnat qo'shiqlarining keng tarqalgan ko'rinishi – dehqonchilik qo'shiqlarining genezisi, badiiy xususiyatlari" tadqiqiga yo'naltirilgan dissertatsiyasi muhim ahamiyatga ega⁶. O'zbek mumtoz adabiyotida dehqonga va dehqonchilikka munosabat alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan. Bu biz amalga oshirayotgan tadqiqotning o'zbek adabiyotshunosligida muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2023-2026-yy.) mo'ljallangan "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Bobur ijodida dehqonchilik motivi va obrazlari orqali ifodalangan g'oya va mazmun, badiiy ifoda, adabiy-estetik tafakkur hamda talqinlar olamini dehqonchilikning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlik qudrati mohiyati bilan uyg'unlikda ilmiy asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dehqonchilik motivi va obrazlarining diniy, tarixiy va adabiy manbalarini oydinlashtirish va ularni chuqur poetik tahlil qilish;

qadimiy yozma manbada dehqonchilikning asosiy mahsuloti g'alla inson erki, yaratuvchilik qudratining ramzi, yer yuzida zo'rlik, zulmat, yovuzlik urug'ini yo'qotib, dunyoda ezgulikni barqaror qilish timsoli sifatida talqin qilinganligini ilmiy asoslash;

Alisher Navoiy bemsilu monand tafakkurining mahsuli sifatida dunyoga kelgan dehqon tushunchasi ma'nolarini ochib berish, dehqon va badiiy ijod masalasini yoritish;

³ Ҳабибуллаев А. Навоий пандномаси. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 40.

⁴ Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 112-117.

⁵ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1- китоб. Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 525. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Энг қадимги даврдан XVII асргача. – Тошкент: Кафолат принт компани, 2021. – Б. 415-416. Ҳайитметов А. Ҳаётбахш аъналар. – Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1974. – Б. 20. Ғаниева С. Маҳбул-қулуб. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик, 2-жилди. – Тошкент: Фан, – Б. 345. Ҳабибуллаев А. Навоий пандномаси. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 39-42; Воҳидов Р. Масал тариқин бағоят яхши айтган шоир. – Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. Тошкент: Бухоро, 1994. – Б. 99-101. Воҳидов Р. Армонга айланган адабий орзулар. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 13-14. Қаюмов А. Ватан ва табиат тасвири – Қаюмов А. Асарлар 1-жилд, 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 315-317. Махмудов Т. "Авесто" хақида. – Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 375. Хомидий Х. Авестодан Шохномагача. – Тошкент: Шарқ, – 2007. – Б. 312.

⁶ To'rayeva L. O'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 142 b.

dehqonchilik ma'rifati nihoyatda jozibador soha bo'lib, badiiy fikr rivojida katta o'rin tutadigan rang-barang mavzu va syujetlarga, voqelik va obrazlarga, tafsilot va badiiy ifodalarga boy ekanligini "Qisasi Rabg'uziy", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Mahbub ul-qulub" va "Boburnoma" asarlarini g'oyaviy-badiiy tahlil qilish orqali isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Avesto", "Qutadg'u bilig", "Qisasi Rabg'uziy", Alisher Navoiy "Xamsa"si va buyuk shoirning nasriy asarlari hamda "Boburnoma" tanlandi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek adabiyotida dehqonchilik motivi va dehqonchilik talqini, shuningdek, badiiy obraz va dehqonchilik tasviri bilan bog'liq timsol va detallar, poetik ifodalar tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy tahlil, matn tahlili, germenektika va struktural tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qadimgi yozma manba "Avesto" dehqon va dehqonchilikka munosabat nuqtai nazardan ilk marta chuqur tahlil qilinib, dehqon va dehqonchilikka, yerga va nonga yuksak ehtirom qadimgi ajdodlarimizning tafakkur va ma'naviy zakovatidan darak berishi, ekin yerlarini ko'paytirish, yerni va dehqon mehnatini asrab-avaylash ilohiy nizom maqomini olganligi aniqlangan;

dehqon obrazi va uning poetik ifodasi, dehqon shaxsi, sifatleri, ruhiyati, axloqiy fazilatleri badiiy tasviriga doir xususiyatlar "Qutadg'u bilig", "Qissasi Rabg'uziy", "Mahbub ul-qulub" asarlarining tahlili orqali dalillangan;

o'zbek mumtoz adabiyotida dehqon motivi va dehqonchilikka munosabat keng ko'lamli manzarani hosil etganligi va ayni mavzuning badiiy adabiyot poetikasi uchun ilhom manbai bo'lganligi Alisher Navoiy ijodi misolida isbotlangan;

o'zbek mumtoz adabiyotida dehqonchilikning donchilik, polizchilik kabi sohalariga munosabat, dehqonchilik va ekologik madaniyat, bog'dorchilik va yashil makon uyg'unligi masalalari o'zbek adabiyotshunosligida birinchi marta Navoiy asarlari va "Boburnoma"ni sinchiklab o'rganish natijasida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Navoiy va Bobur ijodida dehqonga va dehqonchilikka munosabat mavzusini tadqiq qilish natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar adabiyotshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitgan;

dehqon obrazi va dehqonchilik tasvirida har bir ijodkor talqinlarining o'ziga xosligi, ta'sirchanligi va jozibadorligi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan;

mumtoz nasr va she'riyat poetikasini teran idrok etishda mazkur tadqiqot muhim amaliy ahamiyatga egadir. Tadqiqotning tahlil usullari va manbalari mumtoz adabiyot hamda nasr poetikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar uchun manba sifatida xizmat qiladi;

dissertatsiya materiallari ta'lim tizimining turli bo'g'inlariga doir qo'llanma, darslik monografiya va maqolalar yaratishda, "O'zbek adabiyoti tarixi", "Mumtoz adabiyot poetikasi", "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Badiiy tahlil asoslari"

kabi fanlarni, maxsus kurslar o‘quv dasturlarini tayyorlashda, shuningdek, mumtoz va zamonaviy shoirlar ijodiga xos poetik masalalarni o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy tahlil, matn tahlili, germenevtika va struktural tahlil usullari orqali asoslanganligi, ishonchli tarixiy-adabiy manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, to‘plangan materiallar va olingan natijalar “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Sharq xalqlari adabiyoti tarixi” kabi fanlardan ilmiy tadqiqotlar yaratishda hamda “Mumtoz adabiyot tarixi”, “Tasavvuf va mumtoz poetika” fanlari va ularga tegishli sohalarga oid monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalarining takomillashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya natijalari asosida mumtoz adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi, navoiyshunoslik fanlaridan ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari o‘tishda, mumtoz poetika sohasida talabalar bilim va malakalarini oshirishda, ilmiy maqolalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek mumtoz adabiyotida dehqonga va dehqonchilikka munosabat muammosini tadqiq etish jarayonida erishilgan natijalardan:

Alisher Navoiy asarlaridagi dehqon obrazi va uning poetik ifodasi, dehqon shaxsi, sifatleri, ruhiyati, axloqiy fazilatlari badiiy tasviriga doir tahliliy fikrlardan; Navoiy asarlaridagi dehqonchilikning donchilik, polizchilik kabi sohalariga munosabat, dehqonchilik va ekologik madaniyat, bog‘dorchilik va yashil makon uyg‘unligi masalalari tadqiqiga oid xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi AL-662205561 “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” (2023-2024 yy.) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 28-iyuldagi № 01/4-3308-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy mualliflik korpusida maqollar va hikmatli so‘zlar bazasining boyitilishiga erishilgan;

Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosini Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur poetik kashfiyotlariga qiyosan tadqiq qilishda AL-622204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 8-fevraldagi 01-04/892- sonli ma’lumotnomasi). Natijada Buxoro adabiy muhiti vakillarining asarlarini qiyosiy o‘rganib, muhim ilmiy nazariy xulosalarga kelish imkoniyati kengaygan;

O‘zbek milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalining “Assalom Buxoro”, “She’riyat gulshani”, “Milliy o‘zlikni anglash” teleko‘rsatuvlarida foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokompaniyasi, Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 6-fevraldagi 01-09-61-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qadim tarixiy va adabiy manbalardagi dehqonchilik madaniyati haqidagi

quyma mulohazalarni o'rganish va ularni chuqur mushohadadan o'tkazib, bugungi o'zbek dehqoniga taqdim etish imkoniyati yuzaga kelgan. Istiqlol davri dehqonchilik madaniyati, dehqonning vazifalari, huquq va burchlari xususidagi fikr-qarashlar yana-da kengroq ommalashishiga yo'l ochilgan;

dehqon obrazi va dehqonchilik talqini nihoyatda jozibador soha bo'lib, badiiy fikr rivojida katta o'rin tutadigan rang-barang mavzu va syujetlarga, voqelik va timsollarga, tafsilot va badiiy ifodalarga boy ekanligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi huzuridagi "Nilufar" adabiy to'garagi, shuningdek, viloyat, shahar va tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar mashg'ulotlarida, o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganish va targ'ib etishga bag'ishlangan tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limining 2025-yil 7-fevraldagi 2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Qutadg'u bilig", "Qissasi Rabg'uziy", "Xamsa", "Boburnoma" asarlaridagi adabiy ma'lumotlar yangicha ilmiy talqinlarda to'garak azolariga taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 5 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Dehqon va dehqonchilikning diniy, tarixiy va adabiy manbalari**" deb nomlangan va uch fasldan iborat. Bobning dastlabki fasli "**Avesto – dehqon va dehqonchilik tarixini o'rganishda nodir manba**" deb atalgan. Mavjud tadqiqotlarda dehqonchilik kasbi O'rta Osiyo zaminida miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda shakllanganligi, sug'orma dehqonchilik miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik boshida qadimgi Baqtriya hamda hozirgi Surxandaryo viloyati hududlarida qaror topgani qayd etiladi⁷.

⁷ Anorboyev A. O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – Toshkent, 2006. – B. 13; Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007. – B. 127-

Dehqon va dehqonchilik deganda, hayotda ham, inson hayotining badiiy in'kishofi bo'lgan so'z san'atida ham, eng avvalo, g'alla (non) idrok qilinadi. O'quvchi tasavvurida dehqon obrazi ilk marta g'alla (bug'doy) timsolida aks etadi.

G'alla "Avesto"da inson erki, yaratuvchilik qudratining ramzi, yer yuzida zo'rlik, zulmat, yovuzlik urug'ini yo'qotib, dunyoni ezgulik nuri bilan bezash ramzi sifatida talqin qilingan. Bug'doy ilohiy kuch va qudrat sohibi sifatida qadimiy kitob sahifalarini bezaydi. Inson shijoati qo'riq va bo'z yerlarga suv olib borib, cho'lni obod qilgan, yerga ikki qo'li bilan ishlov bergan dehqon timsolida ulug'lanadi. Sipiymon Zardushtning "Hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan joy qayer?" – degan savoliga Ahura Mazda quyidagicha javob beradi: "Bunday joy bir Ashavan **hammadan ko'proq bug'doy, yog' va mevali daraxtlar ekan, odamlar quruq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir**"⁸. Mazkur iqtibos dehqonchilik eng qadimiy kasb ekanligidan dalolat berishi bilan birga dehqonchilikning donchilik va bog'dorchilik sohalari hamda sug'orma dehqonchilikning uzoq tarixga ega ekanligi haqida ham yetarli tasavvur hosil qiladi.

Qishloq, qabila va jamoa a'zolarining barchasi dehqonning mehnatiga, dehqon yetishtiradigan g'allaga (nonga) ko'z tikkan. Shuning uchun ham yillar, davrlar o'tgani sari "Zaminni hammadan ko'ra ko'proq baxtiyor qilgan **"kasb sohibi dehqonga e'tibor g'oyatda kuchayib borgan. To'q, to'kin, farovon hayotning bosh manbayi bug'doy ekish har qachongidan ko'paygan. Chunki yer yuzida inson nasli ko'paygani sari nonga bo'lgan talab tabiiy ravishda ortgan. Qadimiy kitobning Uchinchi daftari, Uchinchi fargardi, uchinchi bo'limi, 30-bandidan o'qiymiz:**

- Ey, dunyoni yaratgan zot!
- Ey, Haqiqat!
- Mazda dinini qanday taom to'yg'izadi?
- Axura Mazda javob berdi:
- Ey, Sipiymon Zardusht!

Bug'doy ekmoq va yana bug'doy ekmoq⁹.

"Vandidod"ning aksariyat sahifalarida keltirilgan iqtibosda kuzatilgani kabi fikrlar Sipiymon Zardushtning Tangriga savoli va Ahura Mazdaning unga javobi tarzida ifodalangan. Xitob, murojaat, savol-javob usuli fikrni o'quvchiga aniq va ta'sirchan tarzda yetib borishini ta'minlagan. Ko'chirilgan iqtibos tarkibidagi so'nggi jumlaning ifoda qilingan fikrning asosi deb qabul qilsak, u holda savol-javob usulining hamda takrir san'atining muhim ritmik, evfonik va semantik vazifani bajarganligini tasavvur qilish qiyin bo'lmaydi. "Avesto" barcha diniy kitoblar singari qomusiy mohiyatga ega bo'lib, komil va sobit e'tiqod uning mundarijasini belgilaydi. Mazdaparastlik e'tiqodiga ko'ra dehqonchilik, don ekish – eng ulkan ibodat: **"Kimda kim bug'doy eksa, u Ashahni (Haqiqat) ekadi"**¹⁰. "Haqiqat" "Avesto"da Ahura Mazda va mazdaparastlik dinining ma'nodoshi sifatida

144.; To'rayeva L. O'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini: Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 20.

⁸ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 113.

⁹ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 111.

¹⁰ O'sha joyda. – B. 111.

qo'llaniladi. Ixcham iqtibos mantig'idan kelib chiqadigan qat'i xulosa shuki, dehqon o'z hayotida butun umr bo'yi, har kuni va har soatda ibodatda yuradi.

Ibtidoiy zamonlardan tortib "Avesto" yaratilgan davr falsafiy-estetik tafakkur xususiyatlarini o'zida in'ikos etgan bunday talqinlar xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning rang-barang shakl va janrlarida taraqqiy etib keldi. Badiiy tafakkurning yaxlit ko'lami, asrlar osha turli estetik irmoqlarda o'ziga xos qonuniyatlarda rivojlandi. Dehqon va dehqonchilikka doir, uzoq asrlar va ajdodlar nazaridan o'tgan hayotiy tasvirlar keyingi davrlar uchun ulkan ibrat, namuna vazifasini bajardi. Biroq dehqon obrazi va dehqonchilik talqinida har bir davr, har bir muhit va har bir ijodkor uslubi muayyan darajada o'z aksini topdi. Har bir talqin ma'lum vaqt mahsuli va aniq makonga ega bo'lgani uchun dehqon obrazi va dehqonchilik talqini yangi hayotiy chizgilar bilan boyib, mukammallashib bordi.

Bobning keyingi fasli **"Qur'oni karimda hamda turkiy adabiyotlar sarchashmasi "Qutadg'u bilig"da dehqonchilikka munosabat"** deb nomlanadi. Sharq adabiy jarayoni, jumladan o'zbek mumtoz adabiyoti islomiy mavzular bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Qur'oni karim haqiqatini chuqur anglashni talab qiladi. Ayni ta'kid mumtoz adabiyotimizdagi dehqon va dehqonchilik talqiniga ham daxldordir. Oyati karimalar mazmuni, ilohiy haqiqat ramzlari iste'dodli ijodkorlar asarlariga singib, islomiy va hayotiy mezonlar uyg'unlashuvi asosida shoh asarlar yaratildi. Tarhi toza, teran, badiiy, mushohadalar Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlari og'zaki va yozma adabiyotiga singib, badiiy so'z jozibasi va qudratini jahonga taratdi. Ammo Sharq adabiyotining, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotining sharqona uslubi o'z sarchashmasi moziydan uzilmas sir-asrori tilsimini oson ochmaydi. Chuqur tafakkur va tadabburni talab qiladi. Qur'oni majid "Baqara" surasining 261-oyati karimasidan o'qiyimiz: **"Alloh yo'lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go'yo bir donga o'xshaydiki, u har bir boshog'ida yuztadan doni bo'lgan yettita boshoqni undirib chiqaradi."**¹¹ ... Alloh yo'lida mol sarflashning ahamiyati oyati karimada g'oyatda yuksak badiiy uslubda vasf qilingan. **Ehson qilingan bir dona molning savobi yetti yuz marta ko'paytirib berilishi dehqon yerga sohadigan bug'doy donasiga, o'sha bir dona bug'doy urug'i yerdan unib chiqib, yetti yuztaga ko'payishiga tashbih qilingan.** Qur'oni karimning badiiy malohatini hech qaysi manba bilan qiyoslab bo'lmaydi. Muhokamamiz asosida turgan oyati karimada mushabbih bih – bir dona bug'doy va uning unib o'sib yetti yuz barobar ko'payishi Alloh yo'lida mol sarflashning foydasi hamda ehson sohibining (mushabbih) Alloh nazdidagi qadr-qimmatini haqida aniq tasavvur paydo qiladi. Ehson sohibining ma'naviy qiyofasini o'quvchi ko'zi o'ngida aniq, jozibali gavdalantiradi. Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy dehqon shaxsiyati va dehqonchilik kasbining mohiyatini yoritishda oyati karimada istifoda etilgan tashbih san'ati unsurlaridan mahorat bilan ijodiy foydalangan: **"Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga yetti yuz eshigin ochar"**¹². Qur'oni karimning "Baqara" (261), "An'om" (141), "Abasa" (24),

¹¹ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2021. – B. 44.

¹² علي شير النواني. محبوب القلوب. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма. – В. 21 б.

“Voqea” (63-70) suralarining oyati karimalarida Alloh yaratgan yer, Alloh yaratgan suv, Alloh yaratgan urug‘, Alloh yaratgan ekin haqida mulohaza yuritilib, dehqonning Alloh bergan tana a‘zolari bilan yerga ishlov berishi, qora yerdan xilmaxil yeguliklarni yuzaga keltirishi ta‘kidlangan. Dehqonning ishini Parvardigorning qudrat qo‘li harakatga solib turishi chuqur tahlil qilingan. Olam-olam diniy, falsafiy va umuminsoniy haqiqatlarni ifodalagan, qur‘oniy mavzular va diniy mafkura ramzlarining tajassumi Birinchi Renessans – Birinchi ma‘rifiy Uyg‘onish davri allomalaridan biri Yusuf Xos Hojib (XII asr) ning “Qutadg‘u bilig” (1069-1070) asarida talqin qilinishicha, dehqon tasavvur qilib bo‘lmas darajada qudratli kuchga ega, chunki qimirlagan jonzot borki, uning qo‘lidan rizq yeydi, u tufayli jamiki mavjudotlar, insoniyat va hayvonot dunyosi sog‘-omon yashaydi. Har bir qimirlagan jonda hayot nishonasi ko‘rinadi, harakat yuz beradi. Insoniyat va hayvonot olami vujudida quvvat paydo bo‘ladi:

Undan rizq topadi qimirlagan jon,
U bois bor jonzot yashaydi omon¹³.

“Turkiy Shohnoma” mohiyatidan sizib chiqadigan haqiqat shuki, dehqon va dehqonchiliksiz adolat ham, davlat ham, aql ham, qanoat ham bo‘lmaydi. “Qutadg‘u bilig”da dehqon va dehqonchilik mohiyati teran talqin qilinganligi, dehqonning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni va ahamiyati hayotiy bo‘yoqlarda chizilganligi dissertatsiyada chuqur asoslangan.

Bobning uchinchi fasli **“Ilk dehqon obrazining badiiy ifodasi”** deb nomlangan. “Qisasi Rabg‘uziy” dehqon va dehqonchilik kasbining ilk sarchashmasi haqida ma‘lumot beruvchi manba sifatida muhim ilmiy qimmat kasb etadi. Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy dehqonchilik kasbining hayotiy ehtiyoj sifatida kelib chiqishini Odam alayhissalom sarguzashti voqealariga tabiiy oqim sifatida san‘atkorona uyg‘unlashtirgan. Va ilk dehqon obrazini hazrati Odam timsolida yuksak mahorat bilan yaratgan. “Qissai Odam safiy alayhissalom”dan o‘qiymiz: “Odamning qorni yavloq ochdi. Jabroil mavlo yorliqi birla ikki uy kelturdi, ujmohdin, biri qizil, biri qora”¹⁴. Jannatdan yerga tushirilgan Hazrati Odamning qorinlari och qoladi. Ana shunda Jabroil farishta Allohning farmoni bilan jannatdan biri qizil, biri qora rangdagi ikki ho‘kiz keltiradi. “Qissasi Rabg‘uziy”dan keltirilgan iqtibos mazmunidan anglashiladiki, dehqonchilik ho‘kizni juft qilib, barcha asbobni hozir qilishdan boshlanadi. Yer toq ho‘kiz bilan haydalmaydi, juft ho‘kiz bilan suriladi. Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy dehqonchilik madaniyatini, dehqon mehnatining yerga urug‘ sepishdan elga non bermakkacha bo‘lgan tadrijini bosqichma-bosqich, sodda va ravon tilda o‘quvchiga yetkazadi: “Jabroil ujmohdin uch uvun bug‘doy kelturdi, uch hissa qildi. Ikkisi senga (Hazrati Odamga – G.Sh.) biri Havog‘a tedi”¹⁵. Jannatdan bug‘doy urug‘ini olib kelgan Jabroil farishta olib kelgan don urug‘larini uchga ko‘paytirib, ikki hissasini Hazrati Odamga, bir hissasini Havoga beradi. Ekadilar. Urug‘lar unib chiqadi. Odam Ato yerga sepgan urug‘dan bug‘doy, Allohning xohish-irodasiga ko‘ra, Momo Havo ekkan urug‘dan

¹³ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 661.

¹⁴ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 27.

¹⁵ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 27.

arpa unadi. Yerdan unib, tuproqdan bosh ko'targan bug'doy nihollarini ko'rgan Odam alayhissalom Jabroil farishtadan so'raydilar: "Yenmu?". "Jabroil aytdi: "Yo'q, tiksun". Tikdi. Bug'doy daraxtida boshloqlar pishib, yetilgach, yana Odam alayhissalom Jabroil farishtaga savol bilan murojaat qiladilar: "Yenmu"? Aytdi: "O'rg'il". "O'rdi". "Qisasi Rabg'uziy" muallifi badiiy matnda savol-u javob usulidan o'z g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirishda san'atkorona foydalangan. Nosiruddin Burhonuddin o'g'li qo'llagan savol-u javoblar bir jumla, bir misra yoki bir baytdan emas, balki savol ham javob ham bir so'zdangina iborat. Badiiy shakldagi bunday o'ziga xos va mos ixchamlik, soddalik badiiy matnning tez va oson o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Badiiy g'oyaning ma'rifiy-tarbiyaviy, estetik kuchini bir necha barobar oshiradi. Tasvir asosida turgan dehqon va dehqonchilik kasbi, uning mohiyati, mashaqqati, nekbinligi, ahamiyati haqida aniq fikr, tasavvur va tushuncha hosil qiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Alisher Navoiy ijodida dehqon va dehqonchilikka munosabat**" deb nomlangan va to'rt fasldan tarkib topgan. Bobning birinchi fasli "**Xamsa**" poetikasi va dehqon shaxsiyatining ijtimoiy vazifasiga ko'ra talqini tahliliga bag'ishlangan. Xalqparvarlikni, iymon-e'tiqodli har bir kishi uchun majburiy deb bilgan ulug' adib deyarli har bir yirik asarida o'z zamonasi uchun asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan dehqon va dehqonchilikka katta rag'bat bilan qaragan. Obod mamlakat, odil shoh, farovon hayot, qudratli davlat haqidagi ijtimoiy-siyosiy masalalar talqinida ham dehqonchilikka oid so'z va ifodalardan san'atkorona foydalangan. Ulug' shoir "Hayrat ul-abror" dostonida mehnatkash xalqni bog'ga, shohni bog'bonga, dehqonga tashbih qiladi. Alisher Navoiy talqinicha, dehqon(shoh) agar o'z gulzoriga qaramasa, ko'm-ko'k yashnab turgan daraxtlar qurib qolib, o'tinga aylanadi:

Bo'ldi raiyat gala u sen shubon,
Ul shajari musmiru sen bog'bon...
Boqmasa dehqon, chamanin tunu kun,
Naxli tarin angla qurug'on o'tin¹⁶.

Alisher Navoiy talqinicha, elga yaxshilik qilgan, xalqqa naf yetkazgan dehqon o'zi ham foyda ko'rgani kabi elga zulm qilgan, zarar yetkazgan zolim kimsa xalqqa emas, eng avvalo, o'ziga jabr qiladi. Hayot gulshani inson uchun yaratilgan, shunday ekan, har bir inson shu buyuk martaba qadrini bilishi zarur. Haqiqiy insoniylik, chin insonparvarlik doimo odamlarga yaxshilik yetkazishda, "naf' rasonlik" dadir. Ammo bunday foyda beg'araz, beta'ma, xolis yetkazilishi zarur. Dehqonchilik kasbi mohiyatan shunday "naf' rasonlik" asosiga qurilgan:

Bermak ishi xotiridin ketmamak.
Bermaku olmoqni xayol etmamak¹⁷.

Buyuk "Xamsa"sida axloqiy-ma'naviy tarbiyaning xilma-xil qirralarini mahorat bilan yoritib bergan Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining o'ttiz oltinchi bobida yozadi:

¹⁶ Navoiy A. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: Фан. 1991. – Б. 123.

¹⁷ Алишер Наваий. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1989. – Б. 110.

Nikoh ichra tilar erdi takarrur,
Ki tobqay tojg'a shohista bir dur.
Topib bu ishda chun aylab taammul,
Ki, sho'ra xas qilur zohir, chaman gul¹⁸.

Masnaviy satrlari mazmunidan anglashiladiki, sho'rxok yerda sho'ra, gul esa chamanda, ya'ni shirin zaminda ko'karadi. Shuning uchun ham dehqon ekinni obod, shirin yerga ekadi. Ulug' shoir dehqonchilikka doir ayni muhim lavhadan davlat va jamiyat hayotining o'zak masalasi – oila va nikoh mavzusini yoritishda foydalangan.

Men ul tufroqmenkim, ul charxi bebok,
Natija bermas andin g'ayri xoshok¹⁹.

Alisher Navoiy o'nlab baytlarda tuproqni poetik obraz sifatida talqin qilib, nihoyatda kamtarinlik bilan uni o'ziga va o'z ijodiga nisbat beradi. Teran fikr-u tuyg'ularini obrazli ifoda etadi. Badiiy ijodni dehqonning unumsiz yerini unumdor yerga, unumdor tuproqqa aylantirish yo'lidagi mashaqqatli mehnatiga qiyos qilib, o'z fikrlarini asoslaydi. Ulug' mutafakkir o'z ijodiy zahmatlari bilan dehqonning faoliyatida uyg'unlik ko'radi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Dehqonchilik motivi, ekologik ma'rifat hamda yashil makon muammosining badiiy inkishofi”** deb nomlangan. Bog'dorchilik – dehqonchilikning o'ta muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir.

“Lison ut-tayr” dostonining XLIV bobida uquvsiz bog'bon hikoyati berilgan. Mazkur hikoyatni Hudhud Qumrining e'tiroziga qarshi so'zlaydi. Hikoyat mag'zida o'z kasbini mukammal egallay olmagan bog'bon obrazi turadi. Hikoyat “Lison ut-tayr” muallifining shaxsiy mushohadalari, shaxsiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan muhim badiiy qimmat kasb etadi. Bog'bon ekologik barqarorlikka hissa qo'shish va sog'lom turmush tarzini yaratishda o'ziga xos vazifani bajaradi, degan g'oya hikoyat mag'zidan sizib chiqadi.

Xuddi shunday g'oya “Sab'ai sayyor” dostonining qoliplanuvchi uchinchi hikoyasida o'ziga xos uslubda yanada yorqinroq badiiy talqin qilingan. Uchinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyasida doston muallifining “yashil makon”ga munosabati Shaxrisabz shahri tavsifida o'z badiiy ifodasini topgan. Hikoyatning o'nlab o'rnida Xizr obraziga murojaat qilingan. Hikoyat qahramoni Sa'dga balo-ofatlarni yengish yo'lini ko'rsatgan pir ham Xizrvash, uning barcha kiyimlari – xirqasi hatto qo'lidagi hassasi ham yashil rangda:

Xirqasi axzaru aso axzar,
Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar²⁰.

Alisher Navoiy “yashil makon” mavzusiga mutlaqo yangicha, tarhi toza uslubda yondashadi. Voqealar bayoniga tush lavhasini kiritadi. “Sab'ai sayyor” badiiyati, g'oyaviy ta'sirchanligini oshirish, uning qurilishi butunligini ta'minlashda alohida o'rin tutgan, tush lavhasida shoh Bahrom Alisher Navoiyga o'z boshidan kechirgan sarguzashtlarini birma-bir hikoya qilib berar ekan, o'zining “Xavarnaq”

¹⁸ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1989. – Б. 203.

¹⁹ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1989. – Б. 350.

²⁰ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 217.

nomli go‘zal bog‘ bunyod etib, dahr bog‘iga husn bag‘ishlaganini alohida ta’kidlaydi:

Yana ulkim, Xavarnaqi yasadim,
Dahr bog‘ig‘a ravnaqi yasadim.
Ne Xavarnaq Eram gulistoni,
Ne Eram, balki ravza bo‘stoni²¹.

“Sab‘ai sayyor”ning XXXVII bobidan keltirilgan masnaviyning ikkinchi bayti dastlabki baytda zikr qilingan Xavarnaq bog‘i sharhiga xizmat qiladi. U ruju’ san‘ati asosida qurilgan bo‘lib, bog‘ning eng muhim yetakchi belgilarini namoyon qiladi. Epik bayonga ravonlik, ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ruju’ san‘ati badiiy matnga shunchalik nozik singdirilganki, Xavarnaq bog‘i ta’rifi va tavsifini bundan boshqa usul yoki badiiy vosita orqali bu qadar ta’sirchan ifodalab bo‘lmaydi. Alisher Navoiy talqinicha, Alloh inoyati bilan xalifalik taxti nasib qilsa, nihol o‘tqazib, bog‘ bunyod qilish, har bir yurt shohi uchun ulug‘ saodatdir. Shunday baxtiyorlik, ya’ni shohlik maqomiga erishib, g‘alaba sharafiga bog‘ barpo qilish, Sulton Husaynga ham nasib qilganligi “Sab‘ai sayyor”ning XXXVII bobida shoh Bahrom tilidan zikr qilingan²².

Masnaviyning navbatdagi ikki baytida shoh Bahrom Sulton Husayn Boyqaro barpo qilgan “Jahonoro” bog‘ini ta’rif qiladi, uni o‘zi yaratgan “Xavarnaq” bog‘idan ustun qo‘yadi²³:

Tarixiylik – badiiy asarni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri. Alisher Navoiyning badiiy asarlaridagi hayotiy lavhalar aksariyat o‘rinlarda ulug‘ adibning tazkira, manoqib hamda tarixiy asarlaridagi dalillar bilan to‘la muvofiq keladi. Masalaga ayni nuqtai nazardan qaraganda “Xamsat ul-matahayyirin” manoqibidagi “Bog‘i Jahonoro” ning yaratilish tarixiga oid nodir ma’lumot beruvchi hikoyat “Sab‘ai sayyor” ning o‘ttiz yettinchi bobidagi tush lavhasidagi tarixiy haqiqatni quvvatlantirishi hamda bevosita “yashil makon” mavzusiga aloqadorligi bilan alohida qiziqish uyg‘otishi dissertatsiyada chuqur asoslangan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Dehqonchilik va faqr tariyqi”** deb nomlangan. Tariqat pirlarining, ilm va badiiy ijod ahlining dehqonchilikka munosabati bilan aloqador lavhalar Alisher Navoiyning “Majolus un-nafois” va “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralarida hamda “Mahbub ul-qulub” pandnomasida kuzatiladi. Buyuk mutafakkir “Majolis un-nafois” tazkirasining beshinchi fiqrasi “Tazkirat ush-shuaro” muallifi Davlatshoh Samarqandiy(1437-1497) ga bag‘ishlangan maqola bilan boshlangan. Buyuk mutafakkir Amir Davlatshohni faqr tariyqi bilan dehqonchilik kasbini mohirona uyg‘unlantirgan komil inson sifatida talqin qiladi. Alisher Navoiy talqinicha, faqr tariyqi va dehqonchilik insonning ruhiy-ma’naviy yuksalishiga birdek xizmat qiladi. Faqr yo‘liga kirgan darvesh ilohiy kamolot uchun mashaqqat tortgani kabi dehqon halol luqma yaratish uchun zahmat chekadi. Chinakam insoniy e’tiqodni halol kasb bilan uyg‘unlashtirgan kishiga ma’rifat eshiklari ochiladi.

²¹ Алишер Навоий. Сабаи сайёр. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1989. – Б. 341.

²² O‘sha joyda.

²³ O‘sha joyda.

Dehqon va dehqonchilikka oid faoliyat Shayxlar hayotida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, yirik axloqiy-tarbiyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy mohiyat kasb etgan. Dissertatsiyada barcha hikmatlar, hodisot va mo‘jizalar insonning asli bo‘lgan yerda, tuproqda joylashganligi, barcha maxluqotning, olamlarning gultoji, Haqning Yerdagi xalifasi bo‘lgan inson dehqon timsolida yerga ketmon urib, bel urib, mo‘jizalar yaratishga qodir ekanligi ilohiy ma‘rifatni egallagan Shayx Shoh Ziyoratgohiy, Shayx Kamol, Shayx Abu ali Siyox, Mavlono Jaloliddin Mahmud Zohid Murg‘obiy, Shayx Ilyos, Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiy obrazlarini tahlil qilish orqali inkor qilib bo‘lmas dalillar bilan isbotlangan.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli **“Navoiy estetikasining yuqori bosqichi”** deb nomlanadi. “Mahbub ul-qulub”ga qadar yozilgan, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Sab‘ai sayyor”, “Lison ut-tayr” dostonlarida nazmiy va nasriy, tarixiy-adabiy hamda manoqib asarlarida mavzu taqozosiga ko‘ra, dehqon va dehqonchilikka doir lavhalarni qisqa, lekin xarakterli shtrixlar orqali qalamga olgan ulug‘ shoir “Mahbub ul-qulub”da dehqonchilikni butun shavkati, buyuk qadr-qiymati, an‘ana va axloq normalari, tartib-qoidalari, o‘lchov-andozalari bilan mufassal tasvirlagan.

Alisher Navoiy dehqon va dehqonchilikning XV asr hayotidagi eng ilg‘or tomonlarini hisobga olgan holda barkamol dehqon ma‘naviy qiyofasining eng asosiy qirralarini “Mahbub ul-qulub”ning “Dehqonliq zikri” dagi 31-faslida san‘atkorona aks ettirgan.

Ulug‘ mutafakkir mamlakat va xalqning dehqonga nisbatan manfaat va zaruriyatini g‘oyaviy-badiiy talqin uchun asosiy mezon qilib olgan. O‘quvchi Alisher Navoiy pandnomasining o‘ttiz birinchi faslida dehqon va dehqonchilikning ulug‘ qudratini oynada ko‘rganday bo‘ladi. Ulug‘ adib dehqon mehnatini alohida ixlos va mehr bilan tasvirlar ekan, jamiyatning har bir a‘zosi dehqondan minnatdor bo‘lishini bosh muddao sifatida kun tartibiga qo‘yadi. Muammoning ayni eng muhim qirradi dissertatsiyada keng tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Dehqonchilikka doir ma‘no-mohiyat, poetik ifoda va badiiy manzaralar tasvirida boburona rostgo‘ylikning o‘rni”** deb nomlangan va uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“Mirzo Bobur Farg‘ona vodiysining dehqonchiligi haqida”** deb atalgan. Dehqon yetishtiradigan mahsulotlar orasida don inson uchun berilgan eng aziz va betakror ne‘mat, xalqning rizq-ro‘zi, dasturxonining ko‘rki, tabarruk, qimmatli xom-ashyo ekanligi “Boburnoma”ning dastlabki sahifasidan aniq va tiniq nazarga tashlanadi. Farg‘ona vodiysining umumiy tavsifini bergach²⁴, ulug‘ adib yozadi: *“...Oshliq va mevasi farovon”*²⁵. Farg‘ona poytaxti Andijon qo‘rg‘onining Movarounnahrda jahongir Amir Temur asos solgan Samarqand va Kesh (Shahrisabz) qo‘rg‘onidan keyingi eng

²⁴ “Boburnoma” muallifi o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan Farg‘ona vodiysi, uning poytaxti Andijon hamda Farg‘ona davlati qalamravida bo‘lgan olti shahar – O‘sh, Marg‘ilon, Isfara, Xo‘jand (uning tarkibida bo‘lgan Konibodom), Aкси, Koson haqida mulohaza yuritir ekan, bu shaharlarning quyidagi jihatlari alohida ahamiyat qaratadi, chuqur tahlil qiladi: 1. Dehqonchilik. 2. Chegara hududlar. 3. Suv bilan ta‘minlanganlik. 4. Ov qushlari. 5. Havosi, tabiati, tabiiy boyliklari. 6. Poytaxtdan qancha uzoqlikda joylashganligi. 7. Xalqi, tili, madaniyati. 8. Ulug‘ kishilari, tarixiy shaxslari...

²⁵ Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B. 5.

ulug‘, mahobatli qo‘rg‘on ekanligi tavsifini keltirishdan oldin yana Mirzo Bobur yurak tafti bilan bitadi: *“Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur”*²⁶. “Boburnoma”dan keltirilgan ixcham iqtibosdan nazarga tashlanadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur dehqonchilikning polizchilik tarmog‘idan faqat qovunni tilga olgan. Poliz mahsulotlaridan tarvuz va qovoq haqida “Vaqoe”da fikr yuritilmagan. Asarda Andijon qovuni haqidagi muallif mulohazalari Farg‘ona vodiysining shimol tarafidagi shaharlardan biri Axxi tasviri bilan davom ettirilgan. Manbalarda Axxikat nomi bilan tilga olingan bu shahar Farg‘ona davlatidagi yetti shahar orasida umumiy yer maydoni jihatidan Andijondan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan yirik shahar ekanligini qayd qilgan Mirzo Bobur yozadi: *“Qovuni yaxshi bo‘lur. Bir nav‘ qovundir kim, “Mir Temuriy” derlar, andoq qovun ma‘lum emaskim olamda bo‘lg‘ay. Buxoro qovuni mashhur dur. Samarqandni olg‘on mahalda Axxidin, Buxorodin qovun kelturub bir majlisda kesturdum. Axxi qovunining hech nisbati yo‘q erdi”*²⁷.

Bobur Mirzo otasi Umarshayx Mirzo poytaxt qilgan zaminda yetishtirilgan qovunning xushta‘mligini, mashhurligini, dunyoning yana bir boshqa joyidan topish mahol ekanligini zikr qilar ekan, **qiyos uchun Buxoro qovunini** tanlagan. “Vaqoe” dan keltirilgan dehqonchilik talqiniga bag‘ishlangan iqtibos qiyosiy tahlilning nodir namunasi bo‘lib, unda Mirzo Bobur shaxsiyatiga xos quyidagi xususiyatlar o‘z in‘ikosini topgan:

1. Boburona rostgo‘ylik va xolislik;
2. Kindik qoni tomgan Vatanga cheksiz sadoqat;
3. O‘ta sinchkovlik, erinmaslik, to‘g‘rilik va aniqlik;
4. Meva-poliz mahsulotlariga bo‘lgan ayricha muhabbat.

Farg‘ona vodiysining iqlimi xurmo, anor, anjirdan tortib, olma, nok, gilos, olcha, olxo‘ri, o‘rik, shaftoli, behi, yong‘oq, bodom, pista kabi issiqsevar o‘simliklarni o‘stirish va ulardan mo‘l hosil olishga mosdir. “Boburnoma” muallifi ayrimlarining nomi keltirilgan mevali daraxtlardan faqat to‘rttasining nomini maxsus tilga oladi: nok, anor, o‘rik, bodom. Asarning Andijon tasviriga bag‘ishlangan qismidan o‘qiymiz: **“Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”**²⁸.

Mahmud Koshg‘ariy “armatlandi” kalimasiga “Nok daraxti nashvati qildi” tarzida izoh beradi²⁹. Mazkur dalil nokning qadim zamonlardan turkiy xalqlar zaminida ekib kelinganini ko‘rsatadi. Bobur Mirzo Farg‘ona vodiysining Andijon, O‘sh, Marg‘ilon, Isfara, Xo‘jand, Konibodom, Axxi, Koson mavzellarida yetishtiriladigan dehqonchilik mahsulotlarini xususiylashtirishga, har bir dehqonchilik namunasini badiiy tafakkur elagidan o‘tkazib, ularning o‘ziga xos tomonlarini namoyon etishga katta ahamiyat qaratadi. Mavzuning mazkur qirralari dissertatsiyada mufassal yoritilgan.

